

MEDIASAVODXONLIK EVOLYUTSIYASI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI**Arobova Shohsanam Akram qizi****ADPI. 13.00.01 yo'nalishi, 1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15662655>**

Annotatsiya. Mediasavodxonlik, evolyutsiya, mediata'lim, axborot xavfsizligi, ommaviy axborot, xabarlarni tahlil qilish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, axborot, media, inson, mediata'lim, jarayon, ommaviy axborot, ko'nikma, malaka

Аннотация

Будут обсуждаться вопросы развития медиаграмотности, медиаобразования, информационной безопасности, средств массовой информации и анализа новостей.

Ключевые слова: медиаграмотность, информация, медиа, человек, медиаобразование, процесс, средства массовой информации, навыки, компетентность

Abstract

The evolution of media literacy, media education, information security, mass media, and news analysis will be discussed.

Keywords: media literacy, information, media, human, media education, process, mass media, skills, competence

Kirish. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanibbormoqda, Ushbu soha albatta rivojlanishi kerak va buni qilamiz... Sh.M.Mirziyoyev.

Tabiat va jamiyatdagi har bir evolyutsion jarayon insoniyat tarixining muhim qismi sifatida insoniyatni o'zi haqidagi tarixiy haqiqatni topishga yaqinlashtiradi. Shu ma'noda u erning yaratilish tarixi, hayvonot olami va o'simlik dunyosining o'zaro bog'liqligidan dunyoning yaratilishi bilan bog'liq muhim yangilikni tadqiq qiladi. Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining hayotimizga chuqur kirib borishi tufayli axborot hajmi ham oshdi va bunday global jarayonda ommaviy demokratik muloqotning eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Muloqotning bu turi inson huquqlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Asosiy. Mediasavodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuyini bildiradi. Mediasavodxonlik media funktsiyalarini tushunish, mazkur funktsiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Mediasavodxonlik – mediata'limning natijasidir.

Mediata'lim ommaviy axborot vositalarining zararli ta'siri va tendentsiyalaridan himoya qilish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Ushbu paradigmadan birinchi bo'lib 1930-yillarda Buyuk Britaniya foydalangan. Buyuk Britaniya va Avstraliyada mediasavodxonlik gumanitar fanlar majmuasiga alohida kurs sifatida kiritilgan. Finlandiyada media va axborot savodxonligi yo'nalishi 1970-yillardan boshlab maktab va universitetlar o'quv dasturlariga kiritilgan. Mediata'lim komponenti maktab programmasiga birinchi bor kiritilganda mustaqil fan sifatida emas, balki ona-tili, tarix, estetik fanlar va ekologiya fanlariga integratsiya qilingan. 2021-yilda e'lon qilingan Mediasavodxonlik indeksiga ko'ra, Finlandiya "yolg'on xabarlar va dezinformatsiyaning salbiy

ta'sirlariga qarshi turishda eng yuqori salohiyatga ega mamlakat" sifatida e'tirof etilgan va indeksda birinchi o'rinni egallagan.

Shvetsiyada mediata'lim 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. Mediata'limni joriy etishdan asosiy maqsad yoshlarda ommaviy axborot vositalarining xabarlarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil ma'lumotlar manbalaridan olingan xabarlar haqida o'z fikrini shakllantirish, shuningdek, tomosha qilingan filmlar va teledasturlar haqida o'z fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirish bo'lgan. 2000-yilning kuzidan boshlab mediata'lim Shvetsiya milliy o'quv dasturiga rasman kiritilgan.

Mediasavodxonlik va axborot madaniyati insonlarga turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi. Mediasavodxonlik — insonlarga turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, mediasavodxonlik — bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llash qobiliyati. Binobarin, dunyodagi barcha voqea va hodisalar u yoki bu tarixiy manbaga o'ziga xos tarzda oydinlik kiritishi va ayni paytda muhim tarixiy ma'lumotlarning ochilishi uchun sabab bo'lishi mumkin. O'tmish tarixi, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'rganishda falsafa, madaniyatshunoslik, etnologiya, etnografiya, san'atshunoslik, sotsiologiya va boshqa shu kabi fanlar etakchilik qilmoqda. Biroq, mohiyatiga ko'ra, bu fan tarixining muhim tarkibiy qismidir. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, ibtidoiy odam o'z fikrini o'zi o'ylab topgan turli belgilar va tasvirlar yordamida ifodalashga harakat qilganligini bilib olamiz. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan til, yozuv va muloqot shakli shu tarzda paydo bo'lgan degan argument bor. Agar biz tilning tarixi va evolyutsiyasi haqida fikr yuritmoqchi bo'lsak, uni ilmiy jihatdan o'rganishimiz kerak. Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Mediasavodxonligi ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni mediata'lim deb ataladi. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limni targ'ib qilish madaniy-ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi takidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va mediasavodxonlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

Axborot xavfsizligi – tasodifiy va atayin qilingan hujumlardan himoyalaniish. Axborot xavfsizligi ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli va kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunida axborot va uning turlari to'g'risida quyidagi ta'riflar keltirilgan:

- Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to’g’risidagi ma’lumotlar;
- Axborotni muhofaza etish – axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish choratadbirlari;
- Ommaviy axborot – cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo’ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar;
- Hujjatlashtirilgan axborot – identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo’yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot;
- Maxfiy axborot – foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo’yiladigan hujjatlashtirilgan axborot.

Ushbu ta’rif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2011-yil 8-iyuldagi PQ-1572-son qarorini amalga oshirish choratadbirlari haqida»gi 2011-yil 7-noyabr 296sonli qarorida quyidagicha ifodalangan: maxfiy axborot – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish cheklangan, davlat sirlariga mansub axborot mavjud bo‘lmagan. ujjatlashtirilgan axborot. Konfedensial axborot – hujjatlashtirilgan axborot, undan foydalanish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi.

Saqlash, o‘zgartirish, uzatish va ma’lum maqsadlar uchun foydalanish obyekti bo‘lgan tevarak olam haqidagi ma’lumotlarni, keng ma’noda axborot deb tushunish mumkin. Bu tushunchaga ko‘ra inson, uning hayot tarziga va harakatlariga ta’sir etuvchi doimiy o‘zgaruvchi axborot maydoni ta’sirida bo‘ladi. Axborot o‘z tavsifiga ko‘ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarishga yoki tijoratga oid hamda maxfiy, konfedensial yoki nomaxfiy bo‘lishi mumkin.

Axborot xavfsizligi tushunchasi, uning tashkil etuvchilari tavsifi. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun’iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta’sirlardan axborot va uni qo‘llab-quvvatlab turuvchi infrastukturaning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta’sirlar axborot sohasidagi munosabatlarga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni qo‘llab quvvatlovchi infrastrukturaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunida axborot xavfsizligi axborot borasidagi xavfsizlik deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Xulosa: Mediasavodxonlik va Axborot sohasida shaxs manfaatleri fuqarolarning axborotdan foydalanishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshishida, qonunda taqiqlanmagan, faoliyat bilan shug‘ullanishida hamda jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishda axborotlardan foydalanishlarida, shaxsiy xavfsizlikni ta’minlovchi axborot himoyasida namoyon bo‘ladi. Axborot sohasida jamiyat manfaatleri bu sohada shaxs manfaatlarini ta’minlashda, demokratiyani mustahkamlashda, ijtimoiy huquqiy davlatni qurishda, ijtimoiy hamjihatlikni qo‘llab-quvvatlashda o‘z aksini topadi.

References:

**Используемая литература:
Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.S.Abdullayeva, Y.Z.Ro'ziyev, K.V.Ismolova Mediasavodxonlik va axborot madaniyati, darslik Toshkent-2024
2. S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, K.A.Tashev Axborot xavfsizligi, darslik, Toshkent-2022, 372 b
3. A.T.Kenjaboyev, M.M.Ikromov, A.Sh.Allanazarov Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent-2017 408 b
4. O.B.Burxiyev Raqamli va axborot texnologiyalari. o'quv qo'llanma, "Bookmany print" Toshkent-2023 354 b
5. D.S.Egamberdiyeva, M.O'Oxunova Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyuatsiyasi va uning jamiyatdagi ahamiyati. Journal of effective.